



**ZAMONAVIY O'ZBEK ADABIYOTIDA LEKSIK
YANGILANISHLAR: TENDENSIYALAR VA LINGVISTIK TAHLIL**

Charos Abdurayimova Faxriddin qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti ,

Tarix va filologiya fakulteti, O'zbek tili va

adabiyoti yo'nalishining 2-kurs talabasi

email:abdurayimova5555@gmail.com

Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti

Annotatsiya:

(o'zbek tilida): Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotida kuzatilayotgan leksik yangilanishlar tahlil qilingan. Texnologik taraqqiyot, ijtimoiy-madaniy omillar va global axborot oqimi natijasida yuzaga kelayotgan yangi so'zlarning adabiy matnlardagi o'rni yoritilgan. Maqolada yangi kirib kelgan birliklarning badiiy tilga ta'siri, ularning semantik va stilistik vazifalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar:

(O'zbek tilida): leksik yangilanish, o'zbek adabiyoti, neologizm, lingvistik tahlil, uslubiyat.

Abstract: This article analyzes the lexical innovations observed in modern Uzbek literature. The study focuses on the integration of new words originating from technological advancements, global communication, and socio-cultural transformations. Through the linguistic examination of literary texts, the article



reveals how neologisms, borrowings, and informal expressions enrich artistic language. The paper also highlights the stylistic and semantic roles of newly emerged lexical units and their influence on the development of literary norms in contemporary Uzbek prose and poetry.

Key words:

lexical innovation, Uzbek literature, neologism, linguistic analysis, stylistics

Аннотация:

В статье рассматриваются лексические нововведения, наблюдаемые в современной узбекской литературе. Основное внимание уделяется заимствованиям и новым словам, появившимся под влиянием технологического прогресса, глобализации и социальных изменений. На основе анализа художественных текстов выявляется роль неологизмов, разговорных выражений и интернет-лексики в обогащении литературного языка. Также подчеркивается значение этих единиц в развитии стилистических и семантических норм современной узбекской прозы и поэзии.

Ключевые:

слова :лексические нововведения, узбекская литература, неологизмы, лингвистический анализ, стилистика

Kirish:

O'zbek tili doimiy rivojlanishda bo'lib, bu rivojlanishning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri leksik qatlamdagi yangilanishlardir. Bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot davrida leksik tizimga ko'plab yangi so'zlar, atamalar, iqtibos birliklar kirib kelmoqda. Ushbu holat adabiy til va badiiy adabiyotda ham sezilarli darajada namoyon bo'lmoqda. Bu globallashuvning sababi o'zbek tilining mavqei pasayib bormoqda. Bunga quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkun;



1. Lotin va kirill alifbosi mojarosi.
2. Internetda o'zbek tilidagi ma'lumotlarning yetishmovchiligi va texnologik rivojlanishda tilning oqsashi.
3. Mutaxassislarning o'z sohalaridagi tilga befarqligi.
4. Zamonning jadal rivojlanishi va globallashuv.
5. Tildagi erkinlikka erishmaganligimiz.
6. Til qonun qoidalariga amal qilmasligimiz.

Lotin va kirill alifbosi mojarosi:

O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi va lotin alifbosini joriy qilish mustaqillikning dastlabki yillarida bo'lib o'tdi [6]. Lekin hozirgacha lotin va kirill alifbosi mojarosi davom etmoqda. Bu albatta tilga zarar yetkazadi. Bu holatni ikkita argument bilan yoritib bermoqchiman.

Tilning ikki xil yozuvda bo'lishligi tilning rivojiga to'sqinlik qiladi. Yozib qoldirish kerak bo'lgan ilmlar (kitoblar, maqolalar, ilmiy jurnallar) barchasi bir alifboda bo'lib, rasmiy hujjatlarning asosiy qismi boshqa alifboda bo'lishi (agar butunlayin boshqa tilda bo'lmasa) tilda nostandartlikka olib keladi. Bunga yechim qilib, ikkala alifbo bilan ham chop etilish ko'p kuzatiladi. Davlat miqyosida ham hanuzgacha rasmiy hujjatlarning kirill alifbosida yozilishi tilga bo'lgan e'tiborsizlikni ko'rsatadi.

Qo'shish mumkinki, bir tilni o'ldirish uchun, u tildagi yozmalarni o'zgartirish va odamlar orasida boshqa tilni ommalashtirish yetarli bo'ladi. Chor Rossiyasi o'zbek tiliga juda ko'p o'zgartirishlar kiritdi [7]. Bunda aynan alifboning qayta qayta o'zgartirishi ham misol bo'ladi. Afsuslar bo'lsinki, ushbu tajriba hali ham davom etmoqda. O'zbek tilining davlat tili qilib tan olinishidan hozirgacha bir necha marta



hattoki lotin shakldagi harflar bo'yicha bir to'xtamga kela olmayapmiz. "Sh" yoki "ş" va hokazo bunga misol.

Bu muammolarning yechimi qat'iylik. Bir qat'iy qarorga ilmiy asoslar bilan kelinishi kerak va o'sha qarorni mustahkam ushlash lozim. Bugungi kunda mamlakat fuqarolari, asosan katta avlod vakillari yozuv bilan bog'liq siyosatni tanqid qiladilar, uning to'g'riligiga nisbatan shubha bildiradilar. Mazkur masala 2017-yilning avgustida bir mutaxassis kirill alifbosiga qaytishni taklif qilib ochiq xat yozganida, 2019-yilgi saylovlar paytida, shuningdek, 2020-yilning oktabrida mas'ul lavozimlarga tayinlanadigan shaxslar uchun davlat tilini bilish bo'yicha daraja sertifikatlari joriy etilishi e'lon qilinganda, yana ko'tarildi.

Internetda o'zbek tilidagi ma'lumotlarning yetishmovchiligi va texnologik rivojlanishda tilning oqsashi:

O'zbek tilida ma'lumotlarning yetishmovchiligi nafaqat kitob holatida balki internetda ham sezilarli darajada kuzatiladi. Alifboning har xilligi esa bu muammoni yanada kuchaytiradi. Internetdagi yozilmalar kamligi esa, yangi texnologiyalar, shu bilan, sun'iy intellektda ham kamchiliklar yaratadi. Ikkalasini kengroq ko'rib chiqsak.

Internetdagi ma'lumotlarning keragidan ko'pligi insonni hayratga soladi, lekin o'zbek tilida ma'lumot topish amri mahol. Qidiruv tizimlari ham siz so'ragan ma'lumotni topishda juda qiynaladi. Bunda albatta o'zbek veb-ltirib chiqaradi. Tabiiyki, kirill bilan yozilganda, birdaniga lotinda yozilgan ma'lumotlarni qidirilmasligi (va aksincha) kutsa bo'ladigan holat.

Yangi texnologiyalardagi, ayniqsa sun'iy intellektga asoslangan texnologiyalardagi kamchiliklarga ham aynan shu muammo sabab bo'lmoqda. Yetarlicha elektron ma'lumot yo'qligi tufayli, katta til modellari, ovozni aniqlovchi



modellari, rasmlarni o'zbek tilida aniqlovchi modellar sifatli ishlay olmaydi. Bunga yechim sifatida ko'proq investitsiya va ekspertlar jalb qilish maqsadli bo'ladi. O'zimizning til uchun o'zimiz harakat qilishimiz kerak.

Mutaxassislarning o'z sohalaridagi tilga befarqligi:

Bu omil ham aynan yangi so'zlarning tilga kirib kelishi bilan bog'liq. Bir tarafdin tilshunoslar mas'ul bo'lsa, ikkinchi tarafdin soha mutaxassislari yangi so'zlarning kirib kelishida ahamiyatli rol o'ynaydi. Albatta, tilshunoslarning barcha sohalarda tushunchalari bo'lmasligi aniq, va shuning uchun soha mutaxassislari yangi so'zlarning kirishida mas'uliyatni his qilishlari kerak bo'ladi.

Tibbiyot sohasida ko'rishimiz mumkin. Asli lotin tilidan juda ko'plab so'zlarga boy soha (qaysi tilda o'rgansangiz ham, lo

tin tilida nomlangan atamalar tibbiyotda juda juda ko'p) [13], bizning tilga kirganda, ham lotin tilidagi, ham rus tilidagi so'zlar va atamalar qolib ketgan. Tibbiyotni o'rganish qiyinligini asosiy sabablaridan biri ham shu. Atamalarning kelib chiqishini tushunmasdan, rus tilida (o'zbek tilida o'rin bosuvchisi bo'lsa ham) kelgan so'zlarni talaba o'rganishi kerak. U talaba bo'lsa na rus tilini, na lotin tilini biladi. Misol tariqasida, MSKT nomli tomografiya mashinasi ham to'g'ridan to'g'ri rus tilidan ko'chirilgan. Atama mohiyatiga qarasak, multi-slice computer tomography (ko'p bo'lakli kompyuter tomografiyasi) deyiladi. O'zbek tilida nomlash kerakmidi yoki shu holda qolishi afzalmi? IT (ya'ni axborot texnologiyasi) ham IT nomi bilan mashhurroq. Juda ko'p atamalarning o'zbek tiliga kirib kelishida e'tiborsizligimiz, so'zlarning ko'r-ko'rona kirib kelishiga va tilning yangilanib ketishiga olib bormoqda. Yangilanish yomon degan xulosa emas, balki, shu atamalarning lug'aviy ma'noga ega o'rnini bosuvchi va aynan to'g'ri keluvchi so'zlar bor-ku. Bunga yana ko'plab misollar keltirsak bo'ladi.



Zamonning jadal rivojlanishi va globallashuv:

Har bir tilga globallashuv keskin ta'sirini o'tkazmoqda. O'zbek tili ham bundan mustasno emas. Zamonning o'ta katta tezlikda rivojlanishi va butun dunyoning ochiq bo'lgan va dunyo miqyosida ulangan zamonasida tillarning bir birlari bilan aralashib ketishi tabiiy hol [14]. Shu sababdan ham buni tabiiy qabul qilgan holda, to'g'ri yondashuv qilishimiz darkor.

To'g'ri yondashuv deganda, qay darajada xalqaro so'zlarni qabul qilish, rasmiylashtirish va ommalashtirish nazarda tutiladi. Aynan shu muvozanatni saqlay olish to'g'ri yechimga olib boradi. Ya'ni, birinchi o'rinda asl, sof o'zbek tilini ajratib olishimiz kerak. Ta'rif beradigan bo'lsam, o'zbek tili - asosi turkiy bo'lgan, arab va fors tillari qo'shilishidan hosil bo'lgan til. Sovet Ittifoqi davrida bir dunyo rus tilidagi so'zlar omma orasida tabiiylashib, o'zbek tiliga kirib bo'ldi. Yangi davrda esa, epidemik tarqalgan IELTSni deb (asl maqsad ingliz tilini o'rganish edi), juda ko'plab ingliz tilidagi so'zlar ommalashib bormoqda. Bu so'zlarning kirib kelishida muvozanatni saqlash lozim. So'zlarni boshqa tildan kirishida qay darajada begona holida olishimiz kerak va qay darajada tarjima qilishimiz kerak?

Misol qilib, matematikada diskret (discrete) tushunchasi bor; shuni ko'rsak bo'ladi. O'zbek tiliga tarjimada shunchaki begona so'z o'z holicha olingan, lekin o'rganuvchiga diskret sonlarni, signallarni, vaqtni va hokazo, tushuntirmoqchi bo'lsangiz, qiynalishi tabiiy. Lekin ingliz tilini biladigan shaxs discrete (bo'laklarga ajratilgan) so'zining tub ma'nosini bilib, continuous (davomiy) deganga antonim ekanligini bilsa, tushuntirilayotgan mavzularda yengillik his qiladi. Analog soatdagi davomiy soniya ko'rsatkichi bilan, har soniyada 'chiq' etib ovoz chiqaruvchi, bo'laklarga bo'lingan soniya ko'rsatkichini tushunish mumkin. Bu so'z qay darajada tarjima qilishini kerak edi?



Tilning o'zgarishida va rivojlanishida zamonning o'zgarishlari to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiladi. Lekin, bizning vazifamiz balans (muvozanat)ni ushlagan holda yondashuv qilishimiz.

Va eng muhimi, hozirgacha tildagi erkinlikka erishmaganligimiz

O'zbek tilining yo'q bo'lishiga eng katta sababi o'zbeklarning tilga bo'lgan munosabati deb bilaman. Til yozuvlarda qoladi va og'izdan og'izga o'tib boradi. Ya'ni, xalq, omma tilning kelajagini belgilab beradi. Lekin ko'p kuzatiladigan holat bu o'zbek tilida muloqot qilish past, va aksincha, rus yoki ingliz tillarida gaplashishlik yuqori saviyani ko'rsatadi.

Ko'chadagi holatlarda Toshkent shahrida bu ko'proq ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, ayollar orasida ko'proq ko'riladi. Rus tilida gapirishlikni o'zi uchun saviyali deb bilish va o'zbek tilida so'zlashni kamchilikday ko'rish afsuski juda ko'p. Hujjat ishlari bilan bo'lganda ham shu hodisa ko'p takrorlanadi. O'zbek tilida suhbat qursangiz sizga past nigoh bilan qarashadi. San'atkorlar va madaniyat xodimlari tilga ta'sir qiladigan darajada kuchga ega, chunki ko'plab yoshlar ularni doimiy kuzatib boradi. Lekin, aynan shu holatni bir qancha san'atkorlar orasida ham ko'rish mumkin. Rus tilida muloqot qilishni saviyasini yuqori ekanligini ko'rsatish uchun afzal ko'radi.

Ingliz tili ham shu darajaga yetib keldi. Do'koningizni o'zbek tilida emas, ingliz tilidagi biron so'z bilan nomlashingiz, taklif etilayotgan xizmatlar va mahsulotlarni ham ingliz tilida nomlashingiz sizni yuqori sifatli brend ekanligingizni ko'rsatadi. Ta'lim markazi emas, education center. Sartaroshxona emas, barbershop. Do'kon emas, supermarket.

Bundayin yondashish tildagi erkinlikka erishmaganligimizni ko'rsatadi. Hanuzgacha ruslar o'rgatgan mentalitet bilan yashar ekanmiz, to'liqligicha mustaqil bo'ldik deya olmaymiz. Tilimiz-la erkin bo'lishimiz zarur.



Siz o'z tilingizda suhbat qilishni va o'z tilingizdan foydalanishni, o'z tilingizda nomlashni past sanar ekansiz, sizning tilingizni boshqasi hurmat qilmaydi. Nega ham hurmat qilsin? O'zimizning tilga bo'lgan munosabatimizni o'zgartirmas ekanmiz, tilni kelajakda faqatgina yo'q bo'lib ketish kutadi.

Asosiy qism

Zamonaviy o'zbek adabiyotida leksik yangilanishlar bir necha manbalardan kelib chiqadi. Ulardan asosiylari:

- 1) texnologik rivojlanish natijasida paydo bo'lgan yangi termin va so'zlar;
- 2) ommaviy axborot vositalari va internet orqali kirib kelayotgan xalqaro atamalar;
- 3) mualliflarning ijodiy neologizmlari va ekspressiv birliklari. Yozuvchi va shoirlarning yangi davr so'z boyligidan foydalanishi adabiy uslubda yangicha ifoda vositalarini shakllantirmoqda. Masalan, Abdulla Oripovning keyingi yillardagi she'rlarida global mavzular, siyosiy o'zgarishlarga doir yangi leksik birliklar kuzatiladi. Yoki O'tkir Hoshimovning asarlarida xalq orasida ommalashgan, ammo ilgari adabiy bo'lmagan so'zlar badiiy nutqqa kirib kelgan. Internetning ta'siri bilan kirib kelayotgan so'zlar – "blogger", "kontent", "feyk", "target", "onlayn" kabi birliklar adabiy matnlarda o'z aksini topmoqda. Bu so'zlar faqatgina tarjima qilinmay, balki mualliflarning stilistik usullarida to'g'ridan-to'g'ri qo'llanmoqda. Bu esa leksik yangilanishning faol va tabiiy jarayon ekanligini ko'rsatadi.

Tahlil va muhokama:

Tarixiy o'zbek adabiyoti bilan taqqoslaganda, bugungi leksika ancha erkin va ko'p manbali bo'lib qolmoqda. Ilgari adabiy matn qat'iy uslubiy me'yorlarga asoslangan bo'lsa, hozirgi yozuvchilar erkin ekspressivlikni, xalq og'zaki nutqidagi



soʻzlarni faol qoʻllashmoqda. Buning natijasida badiiy matnning semantik boyligi ortib bormoqda.

Xulosa:

Zamonaviy oʻzbek adabiyotidagi leksik yangilanishlar tilning ijtimoiy, texnologik va madaniy hayotga moslashuvchanligini koʻrsatadi. Bu yangilanishlar yozuvchilarga kengroq ifoda imkoniyatini yaratadi, oʻquvchilar esa oʻz zamonasini aks ettirgan matnlar orqali realistik tasavvurlar hosil qiladi. Leksik yangilanish – bu faqat til hodisasi emas, balki madaniy va ruhiy yangilanish ifodasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirov N. Til va tafakkur. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2020.
2. Xudoyberganov Q. Oʻzbek tilining leksikasi. – Toshkent: Fan, 2019.
3. Abdullayeva M. Adabiy tilda yangilanish jarayonlari. – OʻzMU ilmiy jurnali, 2022.
4. Internet manzillar va onlayn platformalardagi adabiy nashrlar (telegram, bloglar, audiokitoblar).
5. Karimov R. Lingvistik tahlil asoslari. – Toshkent: Isteʼdod, 2021
6. [Kirill Yozuvi va Lotin Yozuvi: Mavjud Muammolar va Yechimlar - The Oxus Society for Central Asian Affairs](#)